

PAPER

GURLAN (XORAZM) DEHQONCHILIK LEKSIKASIDAGI AYRIM SO‘ZLARNING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARI BILAN QIYOSI XUSUSIDA

Salayeva Hayotxon Birodar qizi ^{1, *}

¹ Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

² universitet magistranti

* salayevahayot01@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan Gurlan (Xorazm) shevasida dehqonchilik jarayonida qo‘llanilayotgan ayrim so‘zlar qiyosiy-tarixiy metod asosida tahlil qilindi. Boshqa hududdagi sheva elementlari bilan ham qiyos etildi. Shuningdek, “Devonu lug‘otit turk” asari hamda u bilan bog‘liq ilmiy ishlar haqida ham fikr yuritildi.

Key words: sheva, “Devonu lug‘otit turk”, Gurlan (Xorazm) shevasi, leksik birlik, dehqonchilik, g‘alla, dehqon, fonetik, semantik, areal, lahja

Shevalarimiz o‘zbek tilining lisoniy boyligini saqlagan beqiyos manbalar hisoblanadi. Bunga ularni qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili bilan qiyoslash orqali yanada ishonch hosil qilishimiz mumkin. Shunday manbalardan biri turkiy tillarning ilk lug‘ati bo‘lmish Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asaridir. S.Ashirboyev ta’kidlaganlaridek: “Mahmud Koshg‘ariy o‘z davrining ulug‘ dialektologi bo‘lgan. U o‘sha davrning behihoya murakkab vaziyatidagi qabilalarni va ularning tillarini mukammal o‘rganib, aniqlab chiqdi” [Ashirboyev 2023:123]. Bu asarning

ahamiyati xususida esa J.Xudoyberdiyevning maqolasida uni topgan shaxsning quyidagi fikrlari berilgan: “... Bu kitob emas, Turkiston o‘lkasidir! Turkiston emas, jumlayi jahondur! Turklik, turk tili bu kitob soyasida chinakam ravnaq topadi! ... Hozirga qadar turk tilida buning kabi kitob yozilgani yo‘q. Bu kitobning haqiqiy bahosi aniqlanmoqchi bo‘lsa, jahonning xazinalari bunga teng kelolmas...” [Xudoyberdiyev 2006:4]. Darhaqiqat, biz ham yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda ushbu asar leksikasi bilan bugungi Gurlan (Xorazm)shevasi dehqonchilik bilan bog‘liq ayrim

Compiled on: October 18, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

soʻzlarni qiyoslashga harakat qilamiz. Ushaq – kichik, mayda narsa [“D.L.T” I,97]. Gurlan (Xorazm) shevasida bu soʻz hozir ham xuddi shu shaklda va maʼnoda ishlatiladi. Asosan, guruchning ezilgan mayda boʻlaklariga “ushaq” deyiladi. Misol uchun: Burunčdin ušayini tavuqlary berämiz. Üzüük – yerdan siriqib chiqib hovuzga aylangan suv, shuningdek vodiylardan ajrab chiqqan ariqni üzüük suv deyiladi. Bu soʻz fonetik oʻzgarishga uchragan holatda “üzäj, izäj” shaklida shevamizda qoʻllanmoqda. “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati” da ham bu soʻz quyidagi shaklda kelgan: zäjsuv (Toʻrtkoʻl) zej//zij (Mangʻit) zaxob suv: Mal bagʻibatqan žerinde zij suvdan başqa suv joqma [“Oʻ.X.Sh.L.” 108]

Orum – oʻrim, tutam; siqim. Bir orum ot – bir oʻrim oʻt, bir tutam oʻt [“D.L.T” I,104]. Gurlan (Xorazm) shevasida ham bu oʻz shaklini saqlagan: Mallarya bir orum ot salvär. Ekin – ekin; ekiladigan yer [“D.L.T” I,107]. Shevamizda bu soʻzning maʼnosi biroz toraygan. Ekiladigan yer maʼnosida emas, balki dalaga ekiladigan umumiy poliz ekinlariga nisbatan ishlatiladi.

Üjüük: üjüük jer – suv va boshqa narsalar koʻpligidan oyoq bosganda botib, uni sugʻirib olish qiyin boʻlgan joy [“D.L.T” I,113]. Gurlan (Xorazm) shevasida ham bu soʻz “üjüük, üjüq” shakllarida ishlatiladi: Üjüqqa batip šali nällädim.

Oru – oʻra. Bugʻdoy, sholgʻom va boshqa narsalarni saqlash uchun qazilgan chuqur [“D.L.T” I,115]. Gurlan shevasida bu soʻz bugungi kunda ham saqlangan boʻlib, oʻra faqat sabzi va sholgʻomni saqlash uchun foydalaniladi: Orädän gäšir alip ke.

Äniz – angiz; bugʻdoy va boshqa donlar oʻrilib olingach, yerda (sochilib) qolganlari toʻkilgan va choʻp qismi [“D.L.T” I,120]. F.Abdullayevning “Oʻzbek tilining Xorazm shevalari” [19] kitobida ham bu soʻz keltirib oʻtilgan, ammo maʼnosi biroz oʻzgargan: äniz – (Urg, Xiv, Xnq, X-asp) 1. Ekin olingandan keyin boʻsh qolgan yer; 2. Ekilmay qolgan yaroqli yer. “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati” da bu soʻz quyidagi shaklda kelgan: äniz (Xorazm) angʻiz (hosil yigʻishtirib olingan yer, quruq yer) [“Oʻ.X.Sh.L.” 18]

Arītġʻan – tozalaydigan. Ol kiši ol tarigʻ arītġʻan – U kishi har doim bugʻdoy va boshqalarni tozalaydi [“D.L.T” I,170]. F.Abdullayevning “Oʻzbek tilining Xorazm shevalari” [19] kitobida ham “arītmaq”

shaklida kelib maʼnosi “tozalamoq” deya izohlangan. “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati” da bu soʻz quyidagi shaklda kelgan: arinmaq (Toʻrtkoʻl) tozalamoq [“Oʻ.X.Sh.L.” 20]. Bugungi kunda ham Gurlan shevasida shu maʼnoda qoʻllanadi: Sumäläkkä büydaj arttiq.

Ündi – undi. Ot ündi – oʻt koʻkardi, undi [“D.L.T” I,181]. Shevamizda ham ündi soʻzi oʻz shaklini va maʼnosini saqlagan: Büydaj ündi. **Ekdi** – ekdi. Ol tarigʻ ekdi – U don ekdi [“D.L.T” I,180]. Nafaqat Gurlan shevasida, balki adabiy tilimizda ham bugungi kunda ayni shu shaklda qoʻllanilib kelmoqda: Dädäm atizya mäš ekti.

Ordī – oʻrdi. Ol ot ordī – U oʻt oʻrdi [“D.L.T” I,183]. Bu soʻz hozir ham shevamizda faol ishlatiladi, hech qanday fonetik yoki semantik oʻzgarishga uchramagan: Ukäm bilän mallarya ot ordiq.

Ojdi – Ol qagʻun ojdi – U qovun oʻydi. (Qovun soʻyishda dumidan ozgina bir boʻlakni oʻyib olish) [“D.L.T” I,185]. Gurlan shevasida ham qovun yoki tarvuz soʻyishda “ojdi” feʼli qoʻllaniladi.

Alardi – rang keltirdi (uzum va boshqa meva rang keltirdi) [“D.L.T” I,188]. Shevamizda ham xuddi “Devon” da keltirilgan shaklda ishlatiladi.

Üzüüşdi – uzishdi. Ol menä üzüm üzüşdi – U menga uzum uzishda yordam berdi [“D.L.T” I,193]. Bu soʻz shevamizda juda faol. Mevalarni uzishda yoki pomidor, bodring kabi sabzavotlarni uzishda kimdir yordam bersa, “Doʻstim menga bodring uzishga yordam berdi” demasdan, “Dostim mana bädrän üzüşdi” deb aytiladi.

Ekişdi – ekishdi. Ol menä tarigʻ ekişdi – Ekin ekishda u menga yordam qildi [“D.L.T” I,195]. Bu feʼlni ham Gurlan shevasi bilan qiyoslaydigan boʻlsak, hozir ham shu shaklda va maʼnoda foydalanilayotganini koʻrishimiz mumkin: Men dajima xarmiz ekişdim.

Otuldi – tarigʻ otuldi – ekin oʻtaldi, oʻtoq qilindi. Ekin orasida oʻsib, ekinga zarar keltiruvchi oʻtlar yulib tashlandi [“D.L.T” I,201]. Ushbu soʻz ham shevamizda qisman fonetik oʻzgarishga uchragan holatda bugungi kunda ham ishlatilib kelinmoqda: Šali otaldi.

Ushbu maqolamizda “Devonu lugʻotit turk” dagi ayrim soʻzlarni bugungi shevalarimiz bilan qiyosini keltirib oʻtdik, holbuki asarda tilimizda bugungacha saqlanib qolgan soʻzlarning

ko'lamini anchayin katta. Bu so'zlar aynan yoki ayrim fonetik, semantik o'zgarishlarga uchragan holda mahalliy dialektlarda [Ashirboyev 2021:16] qo'llanilayotganligining guvohi bo'lamiz. Demak, S.Ashirboyev aytganlaridek: "...o'zbek tili har uchala etnik guruhlar tilining birlashishi asosida tarkib topgan. Shuning uchun ham bugungi o'zbek tilida har uchala etnik guruh tillariga xos xususiyatlar saqlanib qolmoqda hamda ular o'zbek tilining uch lahjasini vujudga keltirgan. Bunday yirik dialektal tarkib hech bir turkiy tilda mavjud emas. Bular, avval ta'kidlanganidek, qarluq, o'g'uz va qipchoq lahjalaridir"[Ashirboyev 2021:19]. Shevalarimizni qiyosiy-tarixiy metod orqali tahlil qilish, bugungi kundagi boshqa shevalar bilan qiyoslash bizga tilimizni boyitishga, uning boy ildizlarini aniqlashga yordam beradi.

References

1. Ashirboyev S. Areal lingvistika – Toshkent: Bookmany print, 2023.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
3. Абдуллаев Ф. «Девону луғатит турк» асарида ўғуз компонентининг ўрни масаласи // ЎТА. Тошкент: 1971, № 5, 51-56-бетлар.
4. Абдуллаев Ф. «Ўзбек тилининг Хоразм шевалари» – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси, 1961.
5. Boboyorov G'. B. O'zbek shevalarida "Devonu lug'ati-t-turk"dagi so'zlarning saqlanishi to'g'risida // Oltin bitiglar № 2, 90-111-бетлар.
6. Boltayeva Z. "Devonu lug'oti-t-turk" asarida Xorazm shevasiga xos fonetik xususiyatlar // Tamaddun nuri – Toshkent: 2024, № 6, 56-58-бетлар.
7. Дадабоев Х. «Девону луғотит турк»даги туркий тилларга хос фонетик ва лексик-семантик хусусиятлар ҳақида // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Тошкент: 2008, 3-9-бетлар.
8. Ишаев А. «Девону луғатит турк» ва ўзбек шевалари // ЎТА. Тошкент: 1971, № 5, 63-67-бетлар.
9. Маҳмуд Кўшғарий. Девону дуғотит турк. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2017.
10. «Ўзбек халк шевалари луғати» Тошкент: Ўзбекистон ССР «Фан», 1971.
11. Худойбердийев Ж. «Девону дуғотит турк» қачон топилган? // Ўзбек адабиёти ва санъати – Тошкент: 2006, № 8, 4-бет.